O‘LMAS UMARBEKOV ROMANLARIDA INSON VA HAYOT

Nurqobilova Shahnoza Urol qizi

Received: 04.09.2025
Revised: 05.09.2025
Accepted: 06.09.2025

Kalit so‘zlar:

roman, xulosa, fojea, konflikt, syujet, oila, yoshlar.

Annotatsiya: O‘zbek zamonaviy adabiyotining yirik vakillaridan biri adib O‘lmas Umarbekov asarlarida o‘zining teran qarashlari, inson taqdirining chigalligi va kuchli pafos hamda sodda tilda aks ettirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning romanlarida rang-barang taqdirlar, kuchli konfikt, kutilmagan yakunlar orqali inson va hayotning bir-birini to‘ldiruvchi muhim omil ekanligini uqtirishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada adibning “Fotima va Zuhra”, “Odam bo‘lish qiyin” romanlari orqali inson va hayotning nozik nuqtalari tahlil qilinadi.

Dunyo yaralibdiki, inson deya atalmish buyuk va sirli xilqat egasi barcha mavjudot-u nabotot olami ichra o‘zining aql-idroki,ongi,sof va uyg‘oq qalbi bilan ajralib turadi. Ular orasida ijodkor ahligina barcha qatlamlarni, qoniniyatlarni rad etadigan,o‘z so‘ziga va manaviy olamiga egaligi bilan bu dunyoni go‘zallashtiradi. Mana shunday serqirra ijodkorlardan biri. “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” , “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” O‘lmas Umarbekovdir.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik adib ijodi xususida shunday degan edi: “Bunchalar shirinsan, hayot ! O‘lmas Umarbekov asarlarini o‘qiy turib shunday deb hayqirging keladi. “Bunchalar beshafqatsan, hayot! ” . O‘lmas Umarbekovning qalbida tug‘ilib, qog‘ozga ko‘chgan asarlarni o‘qib bo‘lgach, beixtiyor shunday deb yuborging keladi. “Bunchalar makkorsan, hayot !”

O‘lmas Umarbekovning hayot so‘qmoqlarida adashgan qahramonlari bilan tanishgach, “makr va muhabbatning ildizlari qayda ekan? ” deb o‘ylay boshlaysan.[1]

Darhaqiqat, XX asr ikkinchi yarmida o‘zbek nasri taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan adib O‘lmas Umarbekov asarlarida biz hayotning mana shunday serjilo va maftunkor manzaralariga, syujetning keskin burilishlariga-yu qahramonlarning o‘qib ekanmiz, avvalo, bizni iliq,faraxbaxsh hissiyotlar chulg‘ab olganday bo‘ladi,hayot atalmish ulkan moziyda tirik ekanligimizdan o‘zimizni yanada baxtiyor sezamiz. Biroq voqealar rivoji oqimi uzra ketar ekanmiz, to‘lqinlar bizni mutlaqo teskari oqimga olib ketayotganini ilg‘aymiz, ammo chorasizlik hamda asar qahramonlari taqdiri bizni behad qiziqtirgani bois jimgina oqimni kuztishda davom etamiz.

O‘lmas Umarbekov romanlari, asosan, zamonaviy mavzularda yaratilganligi bilan ajralib turadi. Romannavis sifatida adibning bizga qadar ikkita romani mavjudligi hech kimga sir emas. Atoqli adib Said Ahmad ta’biri bilan aytganda “G‘uborsiz tuyg‘ular madhi” deb ta’rif olgan “ Odam bo‘lish qiyin” romani ham keng kitobxonlar olqishiga sazovor bo‘lgan . Asarda ikki yoshning qalb tuyg‘ulari oxir-oqibat fojea bilan tugaganligi xulosa qilinadi. Aslida asar boshida sof, beg‘ubordek ko‘ringan Abdullaning his-tuyg‘ulari vaqtinchalik o‘tkinchi hoy-u havas, hirs ekanligi voqealar syujeti davomida oydinlashadi. U arxitektor qiz Gulchehrani sevib,uning tuyg‘ulari, qizlik iffatini poymol qilgan holda uni boshqa biz qizga ya’ni Sayyoraga almashadi. Oxir-oqibat shu bo‘ladiki, asar fojea bilan , Gulchehraning bevaqt nobud bo‘lishi bilan yakunlanadi. Asar bejizga “Odam bo‘lish qiyin deb nomlanmagan. Bir qarashda insonning yaxshi yoki yomon ekanligini farqlay olmaymiz. Buning uchun ma’lum vaqt va sharoit zarur. Insonning haqiqiy insonligi uning olimligi, bilimi bilan o‘lchanmaydi. Asar qahramoni Abdulla mana shunday inson edi. U katta

1 O‘lmas Umarbekov,Tanlangan asarlar I jild, Sharq, 2002, 5-bet

oliygohlarda o‘qidi, ammo hayot hikmatini uqmadi. Endi u butun umr vijdon azobida qovurilib yashashga mahkum. Ming bor afsuski, bunaqa hayot bilan yashab yasholmaysan, o‘lib o‘lolmaysan kishi. Zero, inson uchun eng kata jazo bu unga berilgan vijdon azobidir.

Adibning ikkinchi romani bu “Fotima va Zuhra” asari hisoblanadi. Roman sarguzasht-detektiv yo‘nalishda yozilgan asarlar sirasiga kiradi. Ushbu asar 1994-yilda nashr etilgan. Kitob holida chop etilishi bilanoq tezda o‘quvchi tiliga tushgan.Ushbu asar asosida badiiy film yaratilib dunyo yuzini ko‘rdi.Teatrda spektakl holida tomoshabinlarga namoyish qilindi.Har ikkala shaklda ham xalqimiz tomonidan iliq kutib olinishga muvaffaq bo‘ldi. Bunda mustaqilligimizdan oldingi davrlarda giyohvandlik balosining avj olishi va uning qurbonlari, qolaversa, ushbu illat ortidagi haqiqatlar, mafiya va uni qo‘llab-quvvatlayotgan rahbarlarning haqiqiy kirdikorlar, ayrim millatparvar kimsalarning “asl yuzi” haqida gap boradi.Shu bilan birgalikda, bunga qarshi kurash olib borayotgan qonun posbonlarining jonkuyarligi ham o‘z ifodasini topgan. Bularning barchasi bir kichik oilaning butunlay barbod bo‘lishi keng ko‘lamda tasvirlanadi. Qolaversa, asarda yoshlarning dunyoqarashi va intilishlari, insonning shaxs sifatida kamol topishida duch kelinayotgan to‘siqlar ko‘ndalang qo‘yilgan. Asosiy personajlar yoshlar obrazi bo‘lib, ularning orzu-umidlari, dunyoqarashi,xarakteri, ma’naviy olami, qolaversa, axloqiy fazilatlari yoritilgan. Bu haqida san’atshunoslik fanlari nomzodi Dilfuza Rahmatullayeva “O‘lmas Umarbekov va teatr” nomli qo‘llanmasida shunday deydi: “Asarlari turli janrlarga mansubligidan qat’iy nazar, yoshlar hayotini chuqur tahlil qilishga,shu yo‘l bilan ortiqcha nasihatlarsiz ularni tarbiyalashga intildi”.[2]

Bundan tashqari, O‘lmas Umarbekov romanda yoshlar xulq-atvorida kamol topgan insoniylik,vatanparvarlik, burchga sadoqat, sevgi va mehr-muhabbat kabi oliyjanob tuyg‘ularni, shuningdek, jamiyatda uchraydigan ayrim

[2] Rahmatullayeva D. O‘lmas Umarbekov va teatr, o‘quv qo‘llanmasi,Toshkent:San’at,2005,30-bet

illatlarni,axloqiy nuqsonlarni asosiy o‘ringa olib chiqqanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa. O‘lmas Umarbekovning ikkala romanida ham yozuvchining inson va hayot haqida teran qarashlari aks ettirilgan. Ushbu romanlarda ko‘tarilgan masalalar bugungi kunda ham dolzarbligi bilan ajralib turadi. “Fotima va Zuhra” romanida Hamidullaning armiyadan kelishi, u bilan hech kimning ishi bo‘lmasligi, vaqtida berilmagan tarbiya esa erka o‘g‘ilning birgina qaltis qadamidan butun boshli oilaning barbod bo‘lishi, oila a’zolarining birin-ketin o‘limi esa vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Bejizga “Bir bolaga yeti mahalla ota-ona” deb bekorga aytishmaydi. Ikkinchi asarida Gulchehraning sof sevgisiga berilgan Abdullaning faqatgina o‘tkinchi tuyg‘uga berilib, hirs bilan javob berishi esa o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Umuman olganda, O‘lmas Umarbekov asarlarida kuchli konflikt bilan to‘qnash kelamiz. Muallif bu kabi muammolarning abadiy ekanligini,zamon va makon tanlamasligini va unga yechim topishga harakat qilganligini anglatadi. Balki, shuning uchun ham O‘lmas Umarbekov asarlari o‘zining badiiy qimmati bilan hali yana uzoq yillar kishilar ma’naviyatini boyitishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarbekov U. Tanlangan asarlar I jild, T.: Shark,2002

2. Umarbekov U. Tanlangan asarlar I jild, Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984

3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug‘ati,Toshkent, Akademnashr , 2013-yil

4. Rax,matullaeva D. Ulmas Umarbekov va teatr, ukuv kullanmasi,-Toshkent: San’at, 2005

5. Tursunov S. X,ayot baribir shirin. Makola. Uzbekistan adabiyoti va san’ati, 1995-yil 7-iyul

6. Odilova N. Dramaturgiya asoslari, ukuv kullanma, Toshkent,2008

7. Voxidov E. Sharkiy kirgok - T.: Sharq, 2014

8. Mirvaliev S. Ulmas Umarbekov, “Sevgim -sevgilim”dan “Qizimdan maktublar”gacha, T.: Shark, 2004